

ISLOM MANBAALARIDA TINCHLIK MASALASINING YORITILISHI

Sultonova Durdona Shuxratilla qizi

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

"Islomshunoslik" mutaxassisligi magistri;

Po'latova Dildora Aziz qizi

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

"Islomshunoslik" ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada islom dinining asosiy manbaalari – *Qur'on* va sahih hadislar doirasida tinchlik tamoyilining nazariy va amaliy asoslari, *Qur'onda* keltirilgan tinchlikka da'vat qiluvchi oyatlar, *Payg'ambar Muhammad (s.a.v.)ning* siyosiy-ijtimoiy faoliyatidagi murosaviy yondashuvlar diniy-huquqiy va axloqiy mezonlar nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Maqolada islom dinining tinchlikka doir qarashlari bugungi globallashuv jarayonida o'z dolzarbligini yo'qotmaganligi ilmiy asosda yoritiladi.

Kalit so'zlar: sulh, *Qur'on*, hadis, barqarorlik, tamoyil, din, qadriyat, huquq, tolerantlik.

Islom dini — jamiyat taraqqiyotini ta'minlash, ijtimoiy barqarorlikni qaror toptirish, insonlar o'rtasida o'zaro hurmat, muros va adolatni mustahkamlashga xizmat qiluvchi ma'naviy-axloqiy dinlardan biridir. Islom ta'limotining tub mohiyatida tinchlik g'oyasi borligi bejiz emas. Tilshunoslik nuqtayi nazaridan qaralganda, arab tilidagi "islom", "silm" va "salom" so'zlari barchasi bir ildizdan kelib chiqqan bo'lib, ular "tinchlik", "salomatlik", "omonlik" va "xavfsizlik" ma'nolarini bildiradi¹.

Jahon dinlari ichida eng yoshi hisoblangan islom dini o'zining ilk davridayoq bag'rikenglik dini sifatida namoyon bo'ldi. Islom dini yahudiylik va nasroniylik kabi o'zidan avvalgi ilohiy dinlarni e'tirof etib, ularning huquqlarini qonun bilan mustahkamlab qo'ygan. Ularning madaniyati, qadriyatlari va diniy amallariga hurmat bilan qarashga, insoniyat orasida adolatni qaror toptirishga chaqirgan. Qur'onning Moida surasi 8-oyatida: "Biror qavm (kishilari)ni yoqtirmasligingiz sizlarni ularga nisbatan adolatsizlik qilishga undamasin" – deb marhamat qilinadi. Islomning bu g'oyasi ijtimoiy va siyosiy sohalarda ham o'z ifodasini topgan. Musulmon jamiyatlarda har doim boshqa din vakillari bilan tinch-totuv yashashga intilish, ularni e'tiqodiga tajovuz qilmaslik va o'zaro hurmat mezonlarini saqlash muhim tamoyil bo'lgan. Islom dini o'zining eng muhim tamoyillaridan biri sifatida bag'rikenglikni amaliy hayotga tadbiiq etgan.

¹ Jaholatga qarshi ma'rifat [Matn]: O'quv qo'llanma / J. Karimov. – Toshkent: O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi nashriyot-matbaa birlashmasi, 2020. – B.6.

Islom dini ta'limotida tinchlik tushunchasi imondan keyingi ulug' ne'mat sanaladi. Tinchlik — bu jamiyat taraqqiyoti va inson baxtining asosi sifatida talqin qilinadi. Ushbu g'oya Muhammad (s.a.v)ning quyidagi so'zlarida o'zining chuqur ifodasini topgan: “Allohdan afv va ofiyat so'ranglar. Chunki biror kishiga imondan keyin ofiyatdan-da yaxshirog'i berilmagan”². Ushbu hadis islomiy aqida va axloqiy ta'limotda inson hayotining eng oliy qadriyatlari sifatida e'tirof etilgan uch asosiy tushunchani o'zida mujassam etadi: imon, afv (kechirim) va tinchlik (salomatlik, omonlik). Hadisda bu qadriyatlar o'zaro ustuvorlik tartibida tilga olingan: eng ulug'i — imon, undan keyin esa afzal ne'matlar sifatida kechirimlilik va tinchlik e'tirof etilgan. “Avf” arab tilida kechirish, o'ch olmaslik, bag'rikenglik, dushmanlikdan voz kechish va yomonlikka yaxshilik bilan javob berish kabi ma'nolarni bildiradi. “Tinchlik” yoki “salomatlik” esa, jismoniy sog'lik bilan bir qatorda osoyishtalik, xavfsizlik va jamiyatdagi barqarorlikni ham o'z ichiga oladi. Hadisda bu ikki tushunchaning imondan keyingi ne'mat sifatida ta'riflanishi, islom dinining e'tiqodga, jamiyatdagi barqarorlikka, kechirimlilik va osoyishta hayot tarziga ustuvor ahamiyat berishini ko'rsatadi. Hadislaridan birida shunday deydilar: “Kim tongda uyg'onganda uning oila a'zolari tinch, tanasi sog'lom va bir kunlik rizqi mavjud bo'lsa, demak, unga butun dunyo ne'matlari berilgan bo'ladi”³. Ushbu hadisda inson hayotining uchta asosiy jihati — tinchlik, sog'liq va rizq alohida e'tirof etilgan bo'lib, ulardan birinchisi sifatida aynan tinchlik tilga olinmoqda. Inson uchun eng zarur ne'mat bu — har kuni osoyishta, xavfsiz, adovatdan yiroq muhitda uyg'onishidir. Tinchlik bo'lmasa, inson o'zini himoyasiz, xavf ostida his qiladi. Bunday vaziyatda na sog'liqni saqlash, na rizq topish, na ibodat qilish mumkin bo'ladi. Tinchlik boshqa barcha ne'matlar amalga oshishi uchun asos bo'lgan shartdir.

Tarixga nazar solinsa, payg'ambar Muhammad (s.a.v) o'zlarining hayotiy faoliyatlarida, tinchlik, muloqot va sulh orqali ijtimoiy barqarorlikka erishishni ustuvor yo'l deb bilganlar. Ular tomonidan olib borilgan siyosiy-ijtimoiy yondashuvlar islomning tinchlikparvar tabiatini ifodalaydi. Buni islom tarixidagi “Hudaybiya sulhi” misolida ochiq ko'rish mumkin. Tarixiy manbaalarda qayd etilishicha, milodiy 628-yilda (hij.6) Makka mushriklari bilan musulmonlar o'rtasida tuzilgan tinchlik bitimi bo'lib, o'sha paytdagi og'ir shartlar va tashqi bosimlarga qaramay, Payg'ambar (s.a.v) tomonidan qabul qilingan edi⁴.

Hudaybiya sulhi o'zining mazmuni va tarixiy ahamiyati jihatidan har qanday jangdagi g'alabadan ustun turadi. Payg'ambar Muhammad (s.a.v) mazkur bitimni musulmonlar uchun og'ir va noqulay shartlar asosida tuzilgan bo'lishiga qaramay, qon

² <https://muslim.uz/uz/e/post/41836-a>. 15.07.2025

³ Sunan ibn Majah. Vol 5 / Imam hafiz abu Abdullah. — Riyadh: Maktaba Dar-us-Salam, 2007. — P.309.

⁴ Ar-rahiqu'l maxtum (Muborak siyrat). / Sobirjon Arziqulov. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. — B.413.

to'kilishining oldini olish, osoyishtalikni ta'minlash maqsadida imzoladilar. Ushbu sulh ayrim sahobalarda norozilik uyg'otgan bo'lsa-da, Rasululloh (s.a.v) sabr bilan tinchlikni afzal ko'rdilar. Sulh natijasida ikki tomon o'rtasida tinchlik qaror topdi. Bundan tashqari "Madina konstitutsiyasi" deb atalgan ahdnoma tuzildi. Unda boshqa e'tiqod egalari bilan adolatli muomala qilish, ularning huquqlarini tan olish va ularni himoya qilish kabi mezonlar aniq bayon etilgan. Payg'ambar (s.a.v) Ahl al-kitob ya'ni yahudiy va nasroniy qo'shnilar bilan doimo yaxshi muomala qilganlar, ularni qadrlaganlar. Ular bilan sovg'a-salom almashar, ulardan hadyani qabul qilar va o'zlari ham ularga hadyalar yuborganlar. Bu orqali Rasululloh (s.a.v) dinlararo iliq munosabatlar, o'zaro hurmat va mehr-muhabbat asosidagi muhitni targ'ib qilganlar. Madinaga Habashiston nasroniylarining vakillari kelganida, Rasululloh (s.a.v.) ularni masjidda joylashtirgan, mehmon qilgan va shaxsan o'zlari xizmat ko'rsatganlar. Ular bu bilan musulmonlar va boshqa din vakillariga ham insoniylik, bag'rikenglik va hurmat bilan yondashish lozimligini amalda ko'rsatganlar. Hatto Najron nasroniylari bilan uchrashuv chog'ida, ularning ibodat qilishlariga to'sqinlik qilmaganlar, balki masjidning bir tomonida ibodat qilishlariga ruxsat berganlar. Bu holat islom dini e'tiqod erkinligini qadrlashini, dinga majburlash tamomila man qilinishini yana bir bor tasdiqlaydi.

Islom dinining tinchlik va osoyishtalikka bo'lgan e'tibori yuqori bo'lishi bilan bir qatorda, bag'rikenglik uning negizi hisoblanadi. Bugungi kunda "bag'rikenglik" tushunchasi ilmiy va amaliy sohalarida, ayniqsa, siyosat, sotsiologiya, falsafa, ilohiyot, axloqshunoslik va qiyosiy dinshunoslik kabi fanlarda keng qo'llanib kelinmoqda. Bu tushuncha barcha zamonlar va jamiyatlar uchun dolzarb ahamiyatga ega. Ushbu atama lotin tilidagi tolerare — "chidamoq", "sabr qilmoq" ma'nolarini anglatib, insonning o'zgacha qarashlarga nisbatan toqatli va xushmuomala bo'lishini ifoda etadi. Bag'rikenglik bu faqatgina kimgadir zarar yetkazmaslik emas, balki har qanday fikr va qarashni, hatto u shaxsiy tushuncha va qarashlarga zid bo'lsa ham, adovatsiz, tahqirsiz, chidam va sabr bilan qabul qilish demakdir. Ushbu tushuncha deyarli barcha tillarda va madaniyatlarda "bardoshlilik", "toqatlilik", "muruvvatlilik", "mehribonlik", "kechirimlilik", "insonlarga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lish" kabi ma'nolar bilan ifodalanadi.

Xalqaro tashkilotlar orasida eng nufuzli va yiriklaridan biri hisoblangan Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) 1945-yilda tashkil etilgan bo'lib, uning Ustavida xalqaro hamkorlik, tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash asosiy maqsad sifatida belgilangan⁵. Mazkur Ustavda davlatlar o'zaro bag'rikenglik ruhida, yaxshi qo'shnichilik tamoyillariga sodiq holda yashashi, nizolarni zo'ravonliksiz, muzokara va diplomatik yo'l bilan hal etishi kerakligi ta'kidlangan. Bu yondashuv bejiz emas.

⁵ <http://pravacheloveka.uz/oz/news/m14139>. 18.07.2025

Ikkinchi jahon urushi kabi global halokatlardan saboq olgan insoniyat uchun xalqaro tashkilotlar faoliyati, ayniqsa, BMT doirasidagi huquqiy asoslar tinch-totuv yashash kafolati sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Bag'rikenglikni asosiy qadriyat sifatida ilgari surgan BMT inson huquqlari, millatlararo totuvlik, diniy va madaniy xilma-xillikni hurmat qilish orqali xavfsizlikka erishishni ko'zlagan.

Taraqqiyotning muhim omillaridan biri sifatida bag'rikenglik, shaxslararo munosabatlarda hamda xalqaro darajada muhim qadriyat sifatida e'tirof etilgan. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, 1995-yil 16-noyabr kuni BMT tizimida faoliyat yurituvchi UNESCO Bosh konferensiyasining 28-sessiyasida tarixiy ahamiyatga ega hujjat — “Bag'rikenglik tamoyillari deklaratsiyasi” qabul qilindi⁶. Deklaratsiyada bag'rikenglik, zamonaviy jamiyatning ajralmas qismi sifatida talqin etilib, insonlar o'rtasidagi o'zaro hurmat, sabr-toqat va turli fikr, e'tiqod hamda madaniy qarashlarga ochiqlik g'oyasi ilgari surildi. Hujjatda irqi, jinsi, milliy yoki etnik mansubligi, tili, dini va boshqa farqlardan qat'i nazar, har bir insonni hurmat qilish va teng ko'rish zarurligi qayd etilgan. Bag'rikenglikni ta'lim tizimi orqali targ'ib qilish, yosh avlodda bu qadriyatga asoslangan dunyoqarashni shakllantirish UNESCO tomonidan ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Deklaratsiya qabul qilingan 1995-yil “Xalqaro bag'rikenglik yili” deb e'lon qilinib, butun dunyo bo'ylab turli konferensiyalar, targ'ibot ishlari va madaniy-tarbiyaviy tadbirlar orqali bu qadriyatga bo'lgan e'tibor kuchaytirildi.

Yurtimizning bu borada olib borayotgan sa'y-harakatlari dunyo miqyosida o'zga mamlakatlarga namuna bo'layotganligi alohida e'tirof etilmoqda. Bu haqda fikr yuritilganda 2018-yil 12-dekabr kuni BMT Bosh Assambleyasining yalpi majlisida “Ma'rifat va diniy bag'rikenglik” nomli maxsus rezolyusiya qabul qilinganligini alohida eslab o'tish o'rinlidir. Mazkur rezolyutsiyaning qabul qilinishi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil sentyabr oyida Nyu-York shahrida bo'lib o'tgan BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasida ilgari surgan tashabbusning amaliy ifodasi sifatida aytib o'tish mumkin. Mustaqillik sharofati bilan 130 dan ortiq millat va elat vakillari yashaydigan O'zbekistonda turli din, millat va elat vakillari farovon yashashi uchun qulay sharoitlar yaratilgan bo'lib, islom, xristianlik, yahudiylilik, bahoi jamoalari va krishnani anglash jamiyati, bular bilan birgalikda ulaming turli oqimlari va yo'nalishlari vakillari tinch, osoyishta va farovon hayot kechirib kelmoqda. Mustaqillik sharoitida etnik munosabatlar va din sohasida olib borilayotgan izchil va qat'iy siyosat tufayli mamlakatimizda millatlararo totuvlik va konfessiyalararo hamkorlik qaror topdi. Dinlararo totuvlik jamiyatda tinchlik va barqarorlikning kafolati bo'lib xizmat qiladi.

“Bag'rikenglik tamoyillari deklaratsiyasi”da qo'llanilgan “tolerant” so'zi o'zbek tiliga “bag'rikenglik” deb tarjima qilinganidan buyon, bu atama ilmiy va ijtimoiy

⁶ Diniy mutaassiblik: mohiyat, maqsadlar va oldini olish yo'llari [Matn] / A. Hasanov [va boshq.] – Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2017. – B.13.

muomalada mustahkam o‘rin egalladi. Bu so‘z jamiyatda turfa fikr va e‘tiqodlarga ochiqlik, sabr, hurmat bilan munosabatda bo‘lish madaniyatini anglatadi. Bugungi kunga kelib, bag‘rikenglik atamasi nafaqat diplomatik va huquqiy hujjatlarda, balki kundalik nutqda ham faol ishlatilmoqda.

Diniy bag‘rikenglik — bu turli din va e‘tiqod egalari o‘rtasida mavjud bo‘lgan aqidaviy tafovutlarga qaramay, ularning yonma-yon, tinch-totuv yashashlarini ta‘minlovchi muhim tamoyildir. Bag‘rikenglik faqat murosaga asoslangan yondashuv emas, balki o‘zga fikr, e‘tiqod va qadriyatlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish madaniyatidir. Bu fikr “Bag‘rikenglik tamoyillari deklaratsiyasi”da ham ochiq ta‘kidlanadi: “Bag‘rikenglik bo‘lmasa, tinchlik bo‘lmaydi. Tinchliksiz esa taraqqiyot va demokratiya bo‘lmaydi”⁷. Ushbu tamoyil jamiyatdagi diniy murosani mustahkamlash, konfessiyalararo ziddiyatlarni yumshatish va insonlar o‘rtasidagi ishonchni oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Diniy bag‘rikenglikni targ‘ib qilish, tolerant munosabatda bo‘lish bilan bir qatorda, tinchlik va barqarorlikni asrashga qaratilgan ongli sa‘y-harakatdir.

Yurtimizning bu borada olib borayotgan sa‘y-harakatlari dunyo miqyosida o‘zga mamlakatlarga namuna bo‘layotganligi alohida e‘tirof etilmoqda. Bu haqda fikr yuritilganda 2018-yil 12-dekabr kuni BMT Bosh Assambleyasining yalpi majlisida “Ma‘rifat va diniy bag‘rikenglik” nomli maxsus rezolyusiya qabul qilinganligini alohida eslab o‘tish o‘rinlidir. Mazkur rezolyutsiyaning qabul qilinishi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017–yil sentyabr oyida Nyu-York shahrida bo‘lib o‘tgan BMT Bosh Assambleyasi 72–sessiyasida ilgari surgan tashabbusning amaliy ifodasi sifatida aytib o‘tish mumkin. Mustaqillik sharofati bilan 130 dan ortiq millat va elat vakillari yashaydigan O‘zbekistonda turli din, millat va elat vakillari farovon yashashi uchun qulay sharoitlar yaratilgan bo‘lib, islom, xristianlik, yahudiylilik, bahoi jamoalari va krishnani anglash jamiyati, bular bilan birgalikda ulaming turli oqimlari va yo‘nalishlari vakillari tinch, osoyishta va farovon hayot kechirib kelmoqda. Mustaqillik sharoitida etnik munosabatlar va din sohasida olib borilayotgan izchil va qat‘iy siyosat tufayli mamlakatimizda millatlararo totuvlik va konfessiyalararo hamkorlik qaror topdi. Dinlararo totuvlik jamiyatda tinchlik va barqarorlikning kafolati bo‘lib xizmat qiladi.

Qur‘onning “Rum” surasi 22-oyatida: “Osmonlar va Yerning yaratilishi, tillaringiz va ranglaringizning xilma-xilligi – Uning (Allohning) mo‘jizalaridandir. Albatta, bunda biladiganlar uchun alomatlar bordir.” – deb marhamat qilinadi. Mazkur oyat insoniyat orasidagi til va rangdagi tafovutlar Allohning bevosita irodasi ekanini ifoda etadi. Turli millatlar, elatlar, urf-odatlar va dinlarning mavjudligi ziddiyat manbai emas, balki ilohiy mo‘jizadir. “Hujurot” surasi 13-oyatida: “Ey insonlar! Albatta, Biz

⁷ <https://iiu.uz/oz/news/3871>. 21.07.2025

sizlarni bir erkak va bir ayoldan yaratdik, va sizlarni bir-biringizni tanishingiz uchun xalqlar va qabilalarga ajratdik. Albatta, Alloh huzurida eng ulug‘rog‘ingiz — taqvodorrog‘ingizdir.” – deb marhamat qilinadi. Ushbu oyatdan murod, insonlar o‘rtasidagi farqlar o‘zaro tanishish, muloqot va hamkorlik qilish uchun yaratilgan vositadir. Islom dini boshqa din vakillari bilan tinch-totuv yashashni targ‘ib etadi. Bu oyatlar islom ummatining boshqa e‘tiqod vakillariga nisbatan adolatli, bag‘rikeng va hurmatli bo‘lishi kerakligini ochiq-oydin ko‘rsatadi.

Islom dini o‘z mohiyatiga ko‘ra tinchlik va osoyishtalik dinidir. Qur‘on oyatlari va hadislar tahlili, dinning asosiy maqsadi insoniyat hayotida tinchlik, adolat, totuvlik, mehr-oqibat va hamjihatlikni qaror toptirishdan iborat ekanligini ko‘rsatadi. Islomda tinchlik nafaqat tashqi muhitdagi osoyishtalik, balki ichki ruhiy poklik va jamiyatdagi ijtimoiy uyg‘unlik sifatida talqin etiladi. Islomiy manbaalarda boshqa din va millat vakillariga nisbatan bag‘rikenglik bilan munosabatda bo‘lish, ularning e‘tiqodi va qadriyatlariga hurmat ko‘rsatish targ‘ib qilingan. Islomiy huquq manbaalarida tinchlikka erishish, insonlarning hayotiga zomin bo‘lmaslik, zimmiylar⁸ va kitob ahliga hurmat bilan yondashish tamoyillari aniq belgilab berilgan. Bu esa islom ta‘limotida tinchlik va bag‘rikenglik tamoyillari muhim o‘rin tutishini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Jaholatga qarshi ma‘rifat [Matn]: O‘quv qo‘llanma / J. Karimov. – Toshkent: O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi nashriyot-matbaa birlashmasi, 2020. – 212 b.
2. Sunan ibn Majah. Vol 5 / Imam hafiz abu Abdullah. – Riyadh: Maktaba Dar-us-Salam, 2007. – 562 p.
3. Ar-rahiqu'l maxtum (Muborak siyrat). / Sobirjon Arziqulov. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. – 632 b.
4. Sahihi Buxoriy. 4-kitob / Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. – Samarqand: “Imom Buxoriy xalqaro ilmiy tadqiqot markazi” nashriyoti, 2020. – 944 b.
5. Sunan at-Tirmidhi. Vol 5 / Muhammad ibn Eisa at-Tirmidhi. – Riyadh: Maktaba Dar-us-Salam, 2007. – 588 p.
6. Diniy mutaassiblik: mohiyat, maqsadlar va oldini olish yo‘llari [Matn] / A. Hasanov [va boshq.] – Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2017. – 160 b.
7. Sahih Muslim. Vol 1 / Al-imam Muslim. – Riyadh: Maktaba Dar-us-Salam, 2007. – 624 p.
8. Sahihi Buxoriy. 1-kitob / Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. – Samarqand: “Imom Buxoriy xalqaro ilmiy tadqiqot markazi” nashriyoti, 2020. – 944 b.
9. <https://muslim.uz/uz/e/post/41836-a>. 15.07.2025
10. <http://pravacheloveka.uz/oz/news/m14139>. 18.07.2025
11. <https://iiu.uz/oz/news/3871>. 21.07.2025

⁸ Zimmiy – islom diyorida yashaydigan, jizya evaziga hukumatning maxsus himoyasida bo‘lgan g‘ayrimusulmon.